

**МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ПЕДАГОГИК
ИШЛARNI TASHKIL ETISH .**

**ОРГАНИЗАЦИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В
ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ**

**ORGANIZATION OF PEDAGOGICAL ACTIVITIES IN
PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS**

**A.Qodiriy nomli JDPI maktabgacha
ta’lim metodikasi kafedrasi dots. G.Kushakova
1-kurs magistr M.Boyzakova**

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik ishlarni tashkil etish hamda bola shaxsini Davlat talablariga muvofiq sog’lom va yetuk, maktabda o’qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish yuzasidan fikrlar bildirilgan.

Аннотация: В статье представлены идеи по организации педагогической работы в дошкольном образовании и формированию личности ребенка в здоровом и зрелом, готовом к школе в соответствии с требованиями государства.

Annotation: This article provides ideas on the organization of pedagogical work in preschool education and the formation of the child's personality in a healthy and mature, ready for school in accordance with the requirements of the State.

Kalit so’zlar: maktabgacha ta’lim, tashkilot, pedagogik ishlar, tashkil etish, bola shaxsini,sog’lom, yetuk,shakllantirish, maktab, dunyoqarash.

Ключевые слова: дошкольное образование, организация, педагогическая работа, организация, личность ребенка, здоровый, зрелый, образование, школа, мировоззрение.

Keywords: preschool education, organization, pedagogical work, organization, child's personality, healthy, mature, formation, school, worldview

XXI asr boshlarida kechayotgan global ijtimoiy-iqtisodiy va geosiyosiy jarayonlar, dunyoning g’oyaviy-mafkuraviy qiyofasini o’zgartirib, yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishni taqozo etmoqda. 2017-2021-yillarga mo’ljallangan “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi”, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qaroriga muvofiq, ta’lim bosqichlarining uzlusizligi va izchillagini ta’minlash, ta’limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, o’quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish hamda pedagog xodimlarini

qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish taqozo etadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev rahbarligida 2017 yil 16 avgust kuni bo’lib o’tgan yig’ilishda maktabgacha ta’lim tizimini jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to’la qamrab olish bo’yicha muhim vazifalar qo’yildi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda uchta yirik hujjat — O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 9 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3261-sonli Qarori, 30 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-5198-sonli Farmoni hamda “O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi – faoliyatini tashkil etish to’g’risida”gi PQ-3305-sonli Qarori qabul qilindi.

Maktabgacha ta’limning asosiy maqsadi-bola shaxsini maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga Davlat talablariga muvofiq sog’lom va yetuk, maktabda o’qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko’zlaydi.

Maktabgacha ta’limning vazifalari:

- bolalarni xalqning boy miliy, madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida aqliy va ma’naviy axloqiy jihatdan tarbiyalash;
- bolalarda milliy g’urur, vatanparvarlik hislarini shakllantirish;
- makatabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o’qishga muntaзам ta’limga tayyorlash;
- bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o’zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish;
- bolalarning jismoniy va ruhiy sog’lig’ini ta’minalashdan iboratdir.

Maktabgacha ta’lim mazmuni va metodlari bola shaxsining shakllanishi, uning mustaqil shaxs sifatida tan olinishi jarayonlari kechadigan muhitda tashkil etilishi katta ahamiyatga ega. Zero, shaxs sifatida shakllangan, kamol topgan bola o’zini, o’zligini taniydi va kelajakda millatning, yurtning faxriga aylanadi.

1. “Ilk qadam” tayanch dasturi asosida ta’lim-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish muhim rolъ o’ynaydi.

- 2.Tarbiyachilarda ta’lim-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishning nazariy jihatlariga ahamiyat qaratilgan.
- 3.Rejalashtirish muhim bosqichlari, tarbiyachi tomonidan qo’llanilgan metod-usullar zamon talabga javob beradi.
- 4.Rejalashtirishda-bolalarning hamma faoliyat turlari keng qamrab olinmagan (mehnat-o’yin-ijodiy-mustaqlil faoliyatları)
- 5.Rejalashtirishda yangi pedagogik-texnologiyalardan kam foydalanilgan (asosan kichik va o’rta guruhlarda pedagogik texnologiya elementlari qo’llangan)
- 6.Rejalashtirishda bolalarning mustaqlil faoliyat jarayonlariga kam vaqt, e’tibor qaratilgan.
- 7.Rejalashtirishda bolalarning yosh individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rejalashtirilgan.
- 8.Katta tarbiyachi va mudira tomonidan ta’lim-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishga nisbatan nazorat va rahbarlikni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.
- 9.Ta’lim-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishi, rivojlantirish yo’llarini ishlab chiqilsa maqsadga muvofiq bo’ladi.
- 10.Ta’lim-tarbiyaviy ishlarining turli bo’limlarini rivojlantirish masalasiga diqqatini qaratish lozim.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida metodik ishlar fanining asosiy qonuniyatları quyidagilar:

1. Maktabgacha ta’limning Davlat xarakteri, uning ta’lim tizimida tutgan o’rni, maktabgacha ta’lim muassasasi uslubchisining ma’naviy- madaniy va umumkasbiy darajasi, uning liderlik va boshqaruv jihatlari, tamoyillari va xususiyatlari to’g’risida tasavvur va bilimga ega bo’lish.
2. Maktabgacha ta’lim muassasasi ishini rejalashtirishning nazariy asoslari, ta’lim-tarbiyaning maqsadi, mazmuni, shaxsni barkamollikka yetaklovchi omillar, jamoada sog’lom muhitni yaratish.
3. Maktabgacha ta’lim muassasasida bolalar hayotining turli qirralarini tashkil etishda tarbiyachi va uslubchi tomonidan qo’llaniladigan metod va usullar, nazorat shakllari va uni o’tkazish metodikasi.

4. O'quv faoliyatini tashkil etish, nazorat va rahbarlikning o'ziga xos xususiyatlari.

5. Metodik ishlarning turlari - shakllari, pedagogik, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etishning qonuniyatlari, imkoniyatlari.

6. Maktbgacha ta'lif muassasasining ota-onalar va jamoatchilik bilan xamkorlik ishidagi maktabgacha ta'lif muassasasining bola tarbiyasidagi majburiyatlar, tarbiya va rivojlanish muammolariga uzlucksiz yondashish, bolalarga ta'lif-tarbiya berish, ularni rivojlantirish jarayonlarining birligi, o'zaro bog'liqligini amalga oshirish, oilaning ijtimoiy, ma'naviy, iqtisodiy, demografik, amaliy vazifalari, ota-onalar savodxonligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan ish shakllarini tanlash imkonini beradi.

O`zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lifni rivojlantirish maqsadi quyidagilarda aks etadi:

- 1) maktabgacha ta'lif muassasalarining maqomini oshirish;
- 2) ota-onalarning talab va takliflarini inobatga olgan holda, maktabgacha ta'lif muassasalarining xilma-xil turlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish.

Qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni muvafaqqiyatli hal etish zaruriyati mavjud:

- 1) maktabgacha ta'lif muassasalarining davlat tizimini saqlab qolish;
- 2) maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablarini aniqlashtirish;
- 3) maktabgacha ta'lifning yangi mazmun va texnologiyasini ishlab chiqish;
- 4) variativlik, ochiqlik, oila, maktab va mahalla hamda nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikni tashkil etish tamoyiliga muvofiq maktabgacha ta'lif muassasalarining tashkiliy tuzilishiga o'zgartirishlar kiritish;
- 5) jamiyat rivojlanishi bilan bog'liqlikda qo'yiladigan talablar va shart-sharoitlardan kelib chiqib maktabgacha ta'lifning o'z vaqtida va muvafaqqiyatli moslashuviga erishish;

6) maktabgacha ta'limdagi o'zgarishlarga tezda moslasha oladigan maktabgacha ta'lim muassasasi uchun kadrlar tayyorlashning tizimini takomillashtirish.

Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'limiy-tarbiyaviy ishni rejalashtirish pedagoglar: tarbiyachi, uslubchi, mudira faoliyatining muhim turlaridan biridir. Rejalashtirish ta'lim-tarbiyaviy ishining zarur sharoit, foydalilaniladigan vosita, ish usul va metodlarini ko'rsatib, ta'lim-tarbiyaviy ish dasturini amalga oshirish tartibi, izchilligini oldindan aniqlashdir.

Tarbiyada yetakchi o`rin katta yoshli o'qituvchiga, tarbiyachiga tegishlidir. U bolalarning xilma xil faoliyatlarini tashkil etadi va yo'lga soladi, o'qitish jarayonini amalga oshiradi. Faoliyatni rejalashtirishda pedagog bolalar rivoji va tarbiyasining umumiy qonuniyatları hamda tarbiyalanuvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini bilishga tayanadi. Bolani tarbiyalash va rivojlantirish qonunlari ob'ektivdir, ular bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ish mazmunini ham izchilligini ham aniqlashda asos xizmatini o'taydi.

Maktabgacha taiim muassasasi ta'lim-tarbiyaviy ishini rejalashtirish mamlakat va maktabgacha pedagogikaning muhim yutug'idir. XIX asr o'rtalarida rus pedagogikasining mashhur namoyondasi E.N.Vodovozova bolalar bilan tabiat hodisalari va qishloq mehnatkashlari mehnatini kuzatishlar mazmuniga ko'ra izhil, murakkablashib va kengayib boradigan tizimini ishlab chiqdi. Bu kuzatishlar turli yoshdagi bolalar uchun ishlab chiqilgan bolib, ularning izchilligi tabiat, mehnat va kishilar turmushidagi mavsumiy o'zgarishlar bilan bog'langan.

Bolalar bilan ishslashni rejalashtirish mazmun va shakllarini izlash uning asoslarini aniqlash mamlakatimizda ijtimoiy maktabgacha tarbiyaning butun shakllanish davrida davom etdi. E.I.Tixeeva metodi asosida ishlovchi maktabgacha ta'lim muassasasida pedagoglar jamoasi reja dastur ishlab chiqadi. Unda bolalar bilan ishning asosiy yo'naliishlari, ularning birikmalari beriladi, har bir yo'naliish ichidagi izchillik belgilanadi.

Xulosa

Yuqoridagi natijalardan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalarga keldik:

- ❖ MTMda Pedagogik kengashni tashkil etish Nizomi asosida ta'lrim tarbiya ishlarini rejalashtirish zarur;
- ❖ Pedagogik jarayon metodik ishlarni tashkil etishning shakl va usullari ishlab chiqish kerak;
- ❖ Maktabgacha ta'limga metodik rahbarlikning tashkiliy tuzilishi va vazifalari aniqlab olinishi va reja ishlab chiqilishi kerak.
- ❖ Pedagogik kengashni pedagogik texnologiyalar yordamida tashkillashtirilsa ham maqsadga muvofiq bo'lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Azizzxo'jayeva X.N. "Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat" T. 2003.
2. Yusupova P. "Maktabgacha pedagogika". T. 1995 y.
3. WWW.TDPU.uz
4. ZiyoNET.www.@mail.ru